

Ayol — hayotning nuri, hamohanglikning beshigi

Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limida Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Erkaklar o'zining aziz hamkasblarini samimiyl tabriklab, ularning mehnati, mehribonligi va iliq munosabati uchun chuqur minnatdorlik izhor etdilar.

Bo'lim raisi Abdurazak Mirzayev ayollarga samimiyl tilaklar bilan murojaat qilib, ular oila va jamiyatning tayanchi, ilhom va kuch manbai ekanini ta'kidladi. Xotin-qizlarga sog'lik, oilaviy farovonlik, baxt va muvaffaqiyat, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida zafar tilab, bu yil 8 Martning o'zgacha ahamiyat kassb etishini qayd etdi, chunki bu yilgi bayram muborak Ramazon oyi - ma'naviy yangilanish va ezgulik fasliga to'g'ri keldi.

Rais o'rribbosari Quvondik Nurboyev, ilmiy kotibi Djaxangir Gulyamov hamda barcha ilmiy va texnik xodimlar ham bayram tabriklariga qo'shilib, ayollarga tinchlik, totuvlik, shodlik va barcha ishlarida muvaffaqiyat tiladilar. Hurmat va minnatdorlik belgisi sifatida xotin-qizlarga kichik sovg'alar topshirildi, bayramona muhit esa samimiyl tilaklar va tabassumlar bilan boyidi.

O'zbekistonda Xalqaro xotin-qizlar kuni ayollarga nisbatan hurmat, ularning zakovati, mehnatsevarligi va mehribonligi ramziga aylangan. Bu kunda jamiyat taraqqiyoti va oila farovonligiga qo'shgan ulkan hissalari uchun xotin-qizlarga minnatdorlik bildirish, shuningdek, ularning ilm-fan, ta'lim va ijtimoiy hayotdagi o'rnini yodga olish alohida ahamiyat kassb etadi.

FA Navoiy bo'limi matbuot xizmati.













